



TELEKANALLAR DASTURLARIDA INFORMATSION KO'RSATUVLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Hatamov Mirjamol To'likovich

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15549715>


Annotatsiya: Ushbu maqolada televizion axborot dasturlarining tili va uslubi, mavzuga yondoshuv jarayonlari, axborot berishning uslublari, mualliflar qo'llaydigan janrlar, axborot tayyorlash madaniyatini yuksaltirish, uni auditoriyasini kengaytirish uchun yangicha shakl va uslublarni, ta'sirchan vositalardan samarali foydalanish masalalarining dolzarbligi xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: informatsiya, televideniya, tinglovchi, muharrir.

Jamiyatda huquqiy-demokratik tamoyillarning qaror topishini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish qiyin. Televideniya omma fikrini, ma'naviyatini shakllantirishga xizmat etuvchi ta'sirchan vosita sifatida namoyon bo'ladi. Eng asosiysi, televideniya kishilarning axborot olish manbasi va madaniy xordiq chiqarishga xizmat qiluvchi san'at turidir. Shu bois, televideniya aholi uchun faqat hordiq vazifasi emas, balki tezkor axborot manbai sifatida xizmat qilishi zarurdir. Ammo, bugungi kunda xolis va tezkor axborot olish, xolis va tezkor axborot uzatish o'zbek jurnalistikasining eng jiddiy muammolardan ekanini tan olishimiz kerak. Bu borada Prezidentimiz, "Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni...kutadi" deya aytib o'tgan. Natija va tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak OAVning har bir tizimida ma'lum yutuqlarga erishildi, shu jumladan, televideniya ham, bugungi kunda televideniyaning imkoniyatlari qamrovi shu darajada kengaydiki, natijada bevosita shu daqiqaning o'zida teletomoshabinlarga voqea-hodisani namoyish etish darajasida rivoj topdi. Televideniya voqealar jarayoni haqiqatni ko'rsatuvchi hamda unga hamohang va uyg'un qadrlar teletomoshabin hotirasiga kirib, voqealar jarayonini kuzatishga va tushinishiga ko'mak beradi.

Shuningdek, "Televideniya faqatgina kadrlar va tasviriy tizma shaklida emas, balki axborot berish vositasi sifatida namoyon bo'lishi zarurdir".

Hozirda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida to'rtta kanal faoliyat ko'rsatmoqda. Bu televizion kanallar orqali asosan uch janr asosidagi teleko'rsatuvlar berib boriladi. Bular:





1. Axborot janri – voqeani qisqa va lo'nda tomoshabinga yetkazish, izchillik, holislik va oshkoralik. Bu turkum ko'rsatuvlarning asosiy mezoni va o'ziga xosligidir.

2. Publitsistik janr – bu turkumdagi ko'rsatuvlar dramaturgiya qonunlariga bo'ysingan, mavzu bir maqsadga yo'naltirilgan, reja asosida amalga oshirilgan tarzda tayyorlanadi.

3. Badiiy janr – muallif tasavvurida o'ylab topilgan, hayotiy voqelikni umumlashtirish, ularni tartibga solish, har xil janrlarda teletomoshabinga yetkazib beriladi.

Demak, har bitta teleko'rsatuv bevosita teletomoshabin ehtiyoji hamda madaniy hordiq olishiga qaratilgandir. Bu telekursatuvlar sirasida informatsion ko'rsatuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. E'tiborlisi, infomatsion ko'rsatuvlar doymiy ravishda muhim bo'lgan mavzularni yoritib bormoqda. Bu yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlarda ham o'z aksini topgan, "Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga e'tibor qaratishimiz zarur, deb o'ylayman. Ya'ni, bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mehanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda".

Informatsiya – nafaqat axborot manbai balki, tezkorlik hamda auditoriya ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Informatsiya – inson uchun muhim omil, balki kundalik ehtiyoj hamdir. Aslida, informatsiya tushunchasi nima? Bu atama asli lotincha so'z bo'lib. "informatsiya" ya'ni, bayon qilish, habar qilish, tushintirish, ma'lum qilish, ma'nolarini anglatadi. Bu o'z navbatida, axborotning tabiati va mohiyatini talqin etish borasidagi yagona bir to'htamga kelish masalasini yanada murakkablashtirgan janr hisoblanadi. Chunonchi, bu masalani mahsus tadqiq etgan olimlardan birining ta'kidlashicha, "Axborot bilimdan ajralmasdir – bilimning tarkibiy qismidir". Ayni paytda berilayotgan har qanday axborot ham bilim axboroti bo'la olmaydi, chunki berilayotgan har bitta informatsiya insoniyatning o'zini o'rab turgan tashqi olamini bilishda hamda o'zaro muloqotda muhim rol o'ynaydi.





Shuningdek, informatsion ko'rsatuvlarda berilayotgan axborot, faktlar haqidagi habardangina iborat bo'lib qolmay, balki inson ichki ehtiyoji bo'lishi muloqotni ta'minlovchi aloqa qilish amali va fikr almashish jarayoni hamdir.

Bugungi kunda "Ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan har bitta axborot erkin va xolis ifodalashga qodir bo'lishi, hokimiyat bilan jamiyat manfaatlarining faol va izchil himoyachisi bo'lishi uchun professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlash jarayonini qayta ko'rib chiqish, ishlash va yetkazishning zamonaviy usullarini va vositalarini o'zlashtirishda, ularga yordam berish zarur". Ha, bu fikrlar tag zamirida bevosita axborotga munosabat, axborot berish hamda berilayotgan har bir informatsiya aniq ravshan bo'lmog'i darkorligi aytib o'tilgan. Agarda biz milliy teleradiokompaniya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan "O'zbekiston", "Yoshlar", "Toshkent" va "Sport" telekanallarini kuzatadigan bo'lsak, bu telekanallarning eng tezkor va dolzarb voqea-hodisalarni aynan informatsion ko'rsatuvlar orqali doimiy ravishda yoritib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Har bir informatsion dastur mamlakatimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tezkorlik bilan yetkazib beruvchi hamda aholini o'zi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlardan xabardor etuvchi ko'rsatuvdir. "Shuningdek, berilayotgan har qaysi informatsion habar, inson akl-zakovatiga hamda tafakkuriga ta'sir etuvchi vosita hamdir".

Informatsion ko'rsatuvlar bevosita bitta janr yuzasidan emas, balki o'z ichiga muhim bo'lgan axboriy janrlarni qamrab olgan. Va bu axboriy tuzilma tarkibi qo'yidagilardan iboratdir:

1. Axborot
2. Sharhli mavzular
3. Xabar
4. Profil
5. Intervyu
6. Yangiliklar
7. Reportaj

Bu axborot turlari qo'yidagicha ta'riflanadi:

Axborot – xabar qilish, tushintirish, ma'lum qilish degan ma'nolarni anglatadi. Mutaxassislarining fikricha, jurnalistikada oldindan ma'lum bo'lmagan biror narsa, voqea haqidagi har qanday xabar axborot, deb ataladi. Agar informatsion dasturda voqelik qanchalik rang-barang aks etsa, xabarning axboriy qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. Informatsion dasturlarda siyosiy





axborot demokratik tamoyillar hamda muhim ustuvor vazifalarni keng targ'ib, qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida talqin etiladi.

Informatsion dasturning axboriy qiymatini ko'rsatib beruvchi janrlardan biri sharhli mavzular hisoblanadi.

Sharhli mavzularda – ma'lum mavzuda fikr va mulohazalar ifoda etiladi. Bunda jurnalist, asosan, davlat miqyosidagi va xalqaro maydonda sodir bo'layotgan muhim voqea-hodisalarga munosabat bildiradi va sharhlab beradi. Xabar – jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida o'kuvchilarga xabar berish ma'lumot yetkazishdir.

Profil – bir odam haqida ifoda etiluvchi qisqacha voqea-hodisa. Juda kam hollarda savol-javob tariqasida bo'ladi. Bu kabi portretli obrazni yaratishda odamlar ham fikr bildirishlari kerak.

Intervyu – axborot janri sifatida ijtimoiy ahamiyatga molik shaxs bilan suhbat demakdir. Shuningdek, intervyu – savol-javoblar tizimidir. Unda jurnalistning vazifasi suhbatdoshi qarashlarini to'laqonli tarzda ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi. Qolaversa, intervyuning ham bir necha turlari mavjud bo'lib, bu informatsion dasturlarda turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Intervyu turlari: intervyu dialog, intervyu monolog, intervyu lavha, intervyu fikr kabilar. Intervyu informatsion dasturlarda berilayotgan har bitta ma'lumotning negizini tashkil etadi.

Biror sohada masalan, texnika, sanoat, ilm-fanda kashfiyot qilinishi, fanga yangilik olib kirilishi yangilika misol. Yangilikning habardan asosiy farqli jihatlari qo'yidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, hamma narsa ham yangilik bo'lavermaydi, biroq biror hudud yoki tashkilotda yig'ilish, konferensiya bo'lsa, bu xabar tarzida berilishi mumkin. Yangilikda buning iloji yo'q. Shu sababdan ham yangilik jamoatchilik uchun qiziqarli bo'lmog'i darkor.

Reportaj – voqea-hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion mahsulotdir. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, xodisalar umumiy, ya'ni qayd etish tarzida bayon etilsa, reportajda fakt, voqea va xodisalar haqida bevosita, o'sha voqea, hodisa bo'lib o'tayotgan paytda, ana shu voqea va xodisalar yuz berayotgan joydan to'g'ridan-to'g'ri xabar beriladi. Boshqacha qilib aytganda, hayot voqealari qayd etilmaydi, balki harakatda, jonli tasvirlanadi hamda bu jarayonda jurnalist bevosita ishtirok etadi. Reportaj informatsiyaning o'ziga xos, jonli ko'rinishi bo'lganliti bois, unning informatsiya berish, habardor qilish bilan bir vaqtda, tasvirlash, taxlil qilish, xulosa chiqarish kabi xususiyatlari ham mavjuddir.





Informatsion ko'rsatuvlarning asosida birinchi o'rinda fakt turadi. Informatsion ko'rsatuvlarda berilayotgan axborotda o'tkazilgan tadbir yoki yig'ilishning qachon, qaerda, kimlar ishtirokida, qay mavzudaligi haqida aniq ma'lumotlar bo'lishi lozim. Ammo, har qanday fakt, voqea-hodisa ham informatsion ko'rsatuv uchun asos bo'la olmaydi. "Avvalo bu faktning ijtimoiy ahamiyati, ya'ni jamiyat uchun, shu kun, davr uchun kerak yoki nokerakligi muhim ahamiyatga egadir".

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy hayotiga taaluqli, to'liq bo'lgan fakt, voqea-hodisagina informatsiya uchun asos bo'la oladi. Bunda ana shu fakt, voqea-hodisaning yangiligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, yangilik ilgari ma'lum bo'lmagan, endigina yuz berayotgan voqea-hodisadir. Bunday voqea-xodisaning ro'y berganligini yuzaga chiqaruvchi asosiy tuzilma informatsion ko'rsatuv hisoblanadi. Shuningdek, informatsion ko'rsatuvlarga qo'yiladigan talablardan biri uning auditoriya, o'quvchilar, eshituvchilar va ko'ruvchilar uchun tushunarli bulishidir. Aniq faktlarga asoslangan va tushunarli bo'lgan informatsiyagina o'z funksiyasini bajara oladi. Aksincha, tekshirilmagan faktlar ustiga qurilgan, pala-partish, tushunarsiz axborot vositasi ko'rsatuv auditoriyasiga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. – Toshkent, 1995.
2. Ernazarov Q. Mamatova Yo. va b. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, Universitet, 2002.
3. Abdusattorov R., Mahmudova S. Ommaviy axborot vositalari tili va uslubi. – Toshkent, 2000.
4. Do'stmuhammad X. Jurnalstning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil: /Monografiya/. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007
5. Do'stmuhammad X. Jamiyat oldidagi mas'uliyat. – Toshkent, O'zbekiston matbuoti, 2006. №1.
6. Nizomov F. Yangilanish an'anasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2000.
7. Toshev F. Muxbirlik saboqlari. – Toshkent, Tafakkur, 2009.
8. Xudoyqulov M. Jurnalstika va publitsistika. (O'quv qo'llanma) –Toshkent, Universitet, 2008.

